

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH

**O‘SIMLIK DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH VA UNDAN
FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI**

12.00.06 – Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq

**yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)

Content of the abstract of the doctoral (DSc) dissertation

Махкамов Дурбек Нematovich

О‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishni huquqiy tartibga solish masalalari3

Makhkamov Durbek Nematovich

Legal issues of regulation of the protection and use of flora39

Махкамов Дурбек Нематович

Правовые вопросы регулирования охраны и использования растительного мира71

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ76

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH

**O‘SIMLIK DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH VA UNDAN
FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI**

12.00.06 – Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq

**yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2020.4.DSc/Yu144.raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Usmonov Muxammadi Baxritdinovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xolmo‘minov Jumanazar Toshtemirovich
yuridik fanlar doktori, professor

Safarov Djaxongir Ismailovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Narzullayev Olim Xolmamatovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 27-may kuni soat 10.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1147-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 11-may kuni tarqatildi.

(2023-yil 11-maydagi 27-raqamli reestr bayonnomasi).

I.R.Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y.Xabibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar nomzodi, professor

S.S.Gulyamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kunda biologik resurslarning tobora qisqarib borayotganligi dolzarb muammoga aylanmoqda. Xususan, Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining “Qizil ro‘yxati”ga yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida turgan 40 mingdan ziyod o‘simlik turlari kiritilgan¹. London zoologiya jamiyati tomonidan tayyorlanadigan “Tirik sayyora indeksi” (Living Planet Index) ham biologik xilma-xillik qisqarishi tezligi oxirgi 20 yilda 2-3 baravarga ortganligini ko‘rsatmoqda². 2022-yil dekabrda “Science Advances” jurnalida e‘lon qilingan ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, “iqlim o‘zgarishi oqibatida 2050-yilga kelib sayyoramizdagi jami o‘simlik va hayvonot turlarining 6-10 foizi hamda 2100-yilda 27 foizi yo‘q bo‘lib ketishi mumkin”³. Ushbu raqamlar, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni huquqiy tartibga solishga qaratilgan yanada samarali mexanizmlarni ishlab chiqish lozimligini ko‘rsatadi.

Jahonda o‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish, ulardan ekologik talablarga qat’iy rioya etgan holda foydalanishni tashkil etish, kamyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishni cheklash, o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish sohasidagi qonunchilikni va ekologik talablarni buzganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirish, “yashil energiya”ni joriy etish orqali o‘simlik dunyosiga ta’sirni qisqartirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda, so‘nggi besh yilda qimmatbaho navli daraxt va butalar kesishni taqiqlash, fuqarolarning ekologik-huquqiy madaniyatini oshirish orqali ularni o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga faol jalb qilishga e‘tibor berildi. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish, Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo‘lgan hududga aylantirish, ko‘kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish, Orol dengizining qurigan tubida qo‘shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni barpo etgan holda 2026-yil yakuniga qadar ularning umumiy hajmini 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish, cho‘l hududlarida o‘simliklarni ko‘paytirish, hududlarda himoya o‘rmonzorlari barpo etish⁴ kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan. Biroq, o‘simlik dunyosi obyektlariga nisbatan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar soni ortib borayotganligi, jamiyat a‘zolarida ekologik huquqiy madaniyatning to‘liq shakllanmaganligi kelgusida bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bois, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishni

¹ <https://www.iucn.org>

² <https://www.zsl.org>

³ <https://russian.rt.com/inotv/2022-12-19/France-info-k-2050-godu>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, ilmiy asoslangan hamda islohotlarga hamohang bo‘lgan mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1992), “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi (2004), “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi (2013), “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (2016), “O‘rmon to‘g‘risida”gi (2018) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son, 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5863-son, 2021-yil 30-dekabrda “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–46-son Farmonlari, 2021-yil 30-dekabrda “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–76-son qarori va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini muayyan darajada amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁵. O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishni huquqiy tartibga solish bo‘yicha ekologik-huquqiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Cambridge University (Buyuk Britaniya), Monash University (Avstraliya), Stockholm Environmental Law and Policy Centre (Shvesiya), Instituto de Investigaciones en Ecosistemas y Sustentabilidad (Meksika), Kyoto University (Yaponiya), Northeast Forestry University, Chinese Academy of Sciences, College of Life Sciences (XXR), University of Delhi, Wildlife Institute of India (Hindiston), University of Malta (Malta), University of Port-Harcourt (Nigeriya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Belarus davlat universitetida (Belarus) olib borilmoqda.

O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishni huquqiy tartibga solish masalalarga oid qayd etilgan xorijiy ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: o‘simlik dunyosi obyektlarini xalqaro-huquqiy muhofazasini kuchaytirish (Monash University, Avstraliya), hududlarni rejalashtirishda o‘simlik dunyosini muhofaza qilish chora-tadbirlarini belgilash (Instituto de Investigaciones en Ecosistemas y Sustentabilidad, Meksika), yovvoyi o‘simlik dunyosi obyektlarini saqlab qolish va boshqarish tizimini takomillashtirish (Northeast Forestry University,

⁵ Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <http://www.ox.ac.uk>; <https://www.cam.ac.uk>; <http://www.hu-berlin.de>; <http://www.kyoto-u.ac.jp/en>; <https://www.useoul.edu>; <http://www.uu.se>; <https://www.uu.nl/en>; www.rug.nl; <https://www.era.int>; <https://www.ut.ee>; <https://www.k6k.ee>; <https://www.msu.ru>; www.iseu.bsu.by

Chinese Academy of Sciences, College of Life Sciences, XXR), suv o'simliklarini muhofaza qilish (Wildlife Institute of India, Hindiston), mahalliy o'simliklar turlarini muhofaza qilish (University of Delhi, Hindiston), o'simliklar yashash muhitini saqlab qolishning o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilishdagi ustun roli (University of Malta (Malta), barqaror rivojlanish uchun kamyob va yo'qolib borayotgan o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish zarurati (University of Port-Harcourt, Nigeriya), muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda o'simlik dunyosini muhofaza qilish (Moskva davlat universiteti, Rossiya), o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish (Belarus davlat universiteti, Belarus) bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bugun dunyoda o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishni huquqiy tartibga solishga oid quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda: o'simlik dunyosini muhofaza qilishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish; o'simlik dunyosidan oqilona foydalanishni ta'minlash va bu borada davlat va jamoatchilik nazorati choralari kuchaytirish; kamyob va yo'qolib borayotgan o'simliklar turlarini saqlab qolish bo'yicha xalqaro tashabbuslarni kuchaytirish; o'simlik dunyosi obyektlaridan keng foydalanishni cheklash orqali biologik xilma-xillikni ta'minlash.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish bilan bog'liq ayrim masalalar mamlakatimiz olimlaridan J.T.Xolmo'minov, M.B.Usmonov, Sh.X.Fayziyev, Y.A.Jurayev, U.T.Ayubov, N.K.Skripnikovlarning ilmiy ishlarida ekologiya huquqining muhim instituti sifatida yoritilgan. Bundan tashqari bir nechta olimlar o'z tadqiqot mavzulari doirasida o'simlik dunyosi obyektlari bilan bevosita bog'liq jihatlarini ham tadqiq etishgan. Xususan, B.H.Kalonov (o'simlik dunyosini muhofaza qilishda davlat ekologik nazorati masalalari), D.M.Umarov (davlat qo'riqxonasida o'simliklarni muhofaza qilish jihatlarini), G.Sh.Uzakova (aholi punktlarida o'simlik dunyosini muhofaza qilish masalalari), M.M.Nurmatov (o'simlik dunyosidan foydalanishning iqtisodiy huquqiy mexanizmiga oid jihatlarini), O.D.Utegenov (o'simlik dunyosini muhofaza qilishda jamoat ekologik nazoratiga oid jihatlar), R.S.Toshboyeva (o'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastriga oid jihatlarini), J.I.Safarov (o'simlik dunyosiga oid qonunchilik hujjatlarini kodifikatsiyalash masalalari), A.A.Nuridullayev (o'simlik dunyosidan foydalanishda ekologik ekspertizaga oid masalalar), A.A.Xodjayev (o'simlik dunyosidan oqilona foydalanish prinsipiga oid masalalar) va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada ko'rib chiqilgan. Shu bilan bir qatorda bevosita o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan o'quv va ilmiy manbalar mavjud. Jumladan, M.B.Usmonov "Flora huquqi" darsligida o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish tartibi va bu boradagi qonunchilik tahlil qilingan. Shuningdek, O.X.Narzullayevning "O'zbekistonda biologik resurslarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy ishida biologik resurslarning turi sifatida o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish va foydalanishning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tilgan.

Xorijiy mamlakatlarda o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga oid ayrim masalalarni E.Ratko, Y.Summer, M.Denney kabi olimlarning asarlarida uchratish mumkin. Bundan tashqari L.Kremer (Yevropa davlatlarida o‘simlik dunyosini muhofaza qilish masalalari), G. Lubbe-Wolff (Yevropa Ittifoqi davlatlarining ekologik siyosatida o‘simliklarning o‘rni), G.Winter (o‘simliklarni biologik jihatdan rivojlanishi va jamiyatning ta’siri), D.Czybulka (qishloq xo‘jaligida biologik xilmaxillikni saqlash masalalari), U.Doyle (o‘simliklarni muhofaza qilishda xorijiy tashkilotlarning o‘rni), U.Muller (biologik resurslarning huquqiy-himoyaviy rejimi), K.Rodi (tabiatni muhofaza qilish va uni moliyalashtirishda davlat organlarining vakolatlari), Cyrill De Klemm (yovvoyi o‘simliklarni muhofaza qilish masalalari), R.Amos (Xalqaro jihatdan tabiatni muhofaza qilishda o‘simliklarning maqomi) kabi huquqshunos olimlar asarlarida tadqiq etilgan.

O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish bilan bog‘liq masalalar MDH davlatlarida M.M.Brinchuk, V.V.Petrov, I.V.Girenko, A.K.Golichenkov, O.L.Dubovik, B.V.Yerofeev, N.V.Makarova, A.V.Kukushkina, A.N.Sapogin, A.A.Stepanova, I.S.Shaxray, I.Sheverdina, Y.I.Shuplesova, A.N.Shekolodkin, Y.I.Yefimova, A.A. Solovyanov kabi olimlarning asarlarida tahlil qilingan⁶.

Garchand ushbu olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy jihatlar, o‘simlik dunyosidan foydalanishning yoki uni muhofaza qilishga oid chora-tadbirlarning aniq bir turi u yoki bu darajada tadqiq qilingan bo‘lsa-da, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishni huquqiy tartibga solish, ushbu sohaga oid qonunchilikni qo‘llash amaliyoti va uni yanada izchil takomillashtirish masalalari ekologiya huquqi fani nuqtai nazaridan kompleks tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Ta’kidlash lozimki, mazkur tadqiqot mavzusining ayrim qirralari (o‘simlik dunyosining bir turining huquqiy muhofazasi) muallif tomonidan 2011-yilda amalga oshirilgan nomzodlik dissertatsiyasi doirasida ham tahlil qilingan⁷. O‘tgan yillarda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar, ayniqsa, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish davlat ekologik siyosatining eng ustuvor yo‘nalish etib belgilanganligi, keng jamoatchilikning diqqat markazida bo‘lgan ijtimoiy-ekologik mavzuga aylanganligi, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish bilan bog‘liq tartib-taomillarning tubdan o‘zgarganligi, shuningdek, ushbu sohada turli ishlanmalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq kuzatuv va o‘rganishlar davomida dastlab bildirilgan fikr-mulohazalar yanada takomiliga yetdi va mazkur tadqiqot ishi tayyorlandi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy-ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishining mavzusi Toshkent davlat yuridik universiteti Kengashining 2019-yil 30-dekabrda (3-son bayonnoma) majlisida tasdiqlangan va universitet ilmiy-tadqiqot rejalari dasturiga kiritilgan.

⁶ **Izoh:** Olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

⁷ Mahkamov D.N. Kamyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik dunyosi obyektlarini huquqiy muhofaza qilish: Yurid. fan. nomz. ...diss. – Toshkent: TDYI, 2011. – 156 b.

Tadqiqotning maqsadi o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishni huquqiy tartibga solish muammolarini tahlil qilish asosida qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘simlik dunyosidan foydalanish va ularni muhofaza qilishning huquqiy tabiati, tarixiy rivojlanishi, uni tushunish bo‘yicha ilmiy konsepsiyalar, doktrinalar va prinsiplarni tahlil qilish orqali yangi ilmiy-nazariy g‘oyalar ishlab chiqish;

o‘simlik dunyosidan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikning rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish va huquqiy kvalifikatsiyasini amalga oshirish;

o‘simlik dunyosidan foydalanishni huquqiy ta‘minlashning doktrinal asoslarini tadqiq qilish;

o‘simlik dunyosini muhofaza qilish undan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

o‘simlik dunyosidan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir xalqaro tajribani tahlil qilish;

o‘simlik dunyosidan foydalanish va ularni muhofaza qilishda jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki yuzasidan takliflar shakllantirish;

o‘simlik dunyosidan foydalanish va ularni muhofaza qilishga oid qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar kiritish;

o‘simlik dunyosiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi milliy qonunchilikka zamonaviy ekologik-huquqiy modellarni joriy qilishga oid tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishni huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq ekologik-huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarning o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi qonunchilik hujjatlari, ularni qo‘llash amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlardan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini yozishda induksiya, deduksiya, tarixiy, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy-huquqiy, statistik, so‘rovnoma o‘tkazish, analiz, sintez kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘simlik dunyosi obyektlariga qonunga xilof ravishda zarar yetkazilgan holatni foto yoki videoyozuvlarini yuborish hamda rag‘batlantirish orqali o‘simlik dunyosini muhofaza qilish, shu jumladan, daraxtlarni noqonuniy kesish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarurati asoslangan;

haydovchilar tomonidan o‘simlik dunyosi obyektlariga zarar yetkazmaslikni ta‘minlash majburiyatini qonunchilikda aniq belgilab qo‘yish orqali o‘simlik dunyosi obyektlari o‘sadigan muhitni saqlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilash lozimligi asoslab berilgan;

o‘simlik dunyosining kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklar turlarini muhofaza qilish, Botanika bog‘larining huquqiy

maqomi, kamayib ketish xavfi ostida turgan o‘simlik turlarini tabiiy muhitdan ajratib olish qonun bilan belgilanish kerakligi asoslantirilgan;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan xo‘jalik maqsadlarida foydalanishda kamyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilishning alohida huquqiy rejimini belgilash asoslab berilgan;

o‘simlik dunyosi obyektlari bo‘yicha olingan monitoring ma‘lumotlarini tizimlashtirishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish hamda o‘simlik dunyosi obyektlarini davlat kadastrini yuritish mexanizmini huquqiy ta‘minlash zarurligi asoslangan;

o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishni nazorat qiluvchi davlat organlarining funksiyalarini qonunchilikda mustahkamlash hamda Qizil kitobga kiritilgan yovvoyi o‘simliklardan foydalanish tartibini takomillashtirish va ulardan foydalanishda ruxsat berish mexanizmini huquqiy ta‘minlash zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishni huquqiy tartibga solishda huquqiy mexanizmning yanada samarali bo‘lishi va huquqni qo‘llashni soddalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi hamda “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlarni tegishlicha inkorporatsiya qilish va ushbu tartibni belgilovchi normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish lozimligi asoslab berilgan;

bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi ekologik siyosati huquqiy barqaror rivojlanish konsepsiya tamoyillarini ifoda etuvchi modernizatsiyalashuv bosqichi vujudga kelganligini inobatga olgan holda “O‘zbekiston Respublikasining 2023-2028-yillarga mo‘ljallangan o‘simlik dunyosini muhofaza qilish Konsepsiyasi”ni ishlab chiqish zarurligi asoslangan;

xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili asosida O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksga o‘zgartirish kiritish va unda o‘simlik dunyosi obyektlarini noqonuniy kesish, shikastlash va yo‘q qilish, o‘rmonlar va o‘simlik dunyosining boshqa obyektlarida yong‘in xavfsizligi talablarini buzish uchun javobgarlikni kuchaytirish lozimligi asoslab berilgan;

barcha tabiiy resurslar – yer, suv, o‘rmon, yer qa‘ri, atmosfera havosi, o‘simlik va hayvonot dunyosining joylashuvi (geografik ko‘rsatkichlari, ma‘muriy-hududiy tegishlilik va boshqa ma‘lumotlar), ularning xo‘jalik maqomi (kimga tegishli, qaysi hujjat asosida, qancha muddatga foydalanishga berilgan va boshqalar), miqdori to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, statistik hisobotlar va boshqa zarur ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan tabiiy resurslar kadastrlarining yagona elektron tizimini joriy etish lozimligi asoslantirilgan;

dunyo tobora raqamli bo‘lib borayotganligi, innovatsion yechimlarni talab qiladigan ekologik muammolarga duch kelinayotganligi sababli atrof-muhitga, xususan o‘simlik dunyosiga oid ma‘lumotlarni kiber tahdidlardan himoyalash va kibermudofaa vositalari atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga muvofiqligini

ta'minlanish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligiga kiberxavfsizlik masalalarini joriy etish lozimligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, shu jumladan, o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organlarining faoliyatida, ekologiya sohasidagi qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda "Ekologiya huquqi", "Tabiiy resurslar huquqi", "Xalqaro ekologiya huquqi" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi. Tadqiqot ishining nazariy jihatlariga tayanish kelgusida o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tartibga solish, ushbu sohadagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bilan bog'liq yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ekologiya sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish hamda huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish, ekologiya sohasidagi qonun hujjatlarini inventarizatsiyadan o'tkazish, shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli organlar va jamoatchilik tuzilmalarining ekologiya sohasidagi faoliyatini takomillashtirishga bag'ishlangan qonun hujjatlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

o'simlik dunyosi obyektlariga qonunga xilof ravishda zarar yetkazilgan holatni foto yoki videoyozuvlarini yuborish hamda rag'batlantirish mexanizmiga oid takliflar Vazirlar Mahkamasining "Davlat ekologik nazorati hamda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 7-apreldagi 165-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Jismoniy shaxslar tomonidan qayd etilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi fotosuratlar va (yoki) videoyozuvlarni qabul qilish, ko'rib chiqish hamda ularni taqdim etgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi haqida nizomning 15-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 3-avgustdagi 12/21-50-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi o'simlik dunyosini muhofaza qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning sifatli ijrosini tashkil etish hamda ushbu sohadagi huquqbuzarliklarga qarshi samarali kurashishga xizmat qiladi;

haydovchilar tomonidan o'simlik dunyosi obyektlariga zarar yetkazmaslikni ta'minlashga doir taklifdan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan Yo'l harakati qoidalarining 125-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash

boshqarmasining 2022-yil 3-avgustdagi 12/21-50-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi o‘simlik dunyosi obyektlarining yashash muhitini saqlab qolishning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga hamda yo‘l bo‘ylarida o‘sayotgan o‘simlik dunyosini muhofaza qilishga xizmat qiladi;

o‘simlik dunyosini muhofaza qilishda tabiiy hududlar, jumladan Botanika bog‘larining huquqiy maqomini belgilash hamda kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o‘suvchi o‘simlik turlarini tabiiy muhitdan ajratib olishga oid berilgan takliflar O‘zbekiston Respublikasi “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 18 va 31-moddalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2016-yil 4-noyabrdagi 04/4-04-189/2 son dalolatnomasi). Mazkur taklif o‘simlik dunyosini genefondini saqlash, kamyob o‘simliklarning turlarini sun‘iy yaratilgan sharoitda o‘rganish, iqlimga moslash, ko‘paytirish, ilmiy hamda o‘quv ishlarini olib borish, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish bo‘yicha bilimlarni targ‘ib qilishga xizmat qiladi;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan xo‘jalik maqsadlarida foydalanishda kamyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilishning alohida huquqiy rejimini belgilashga oid taklif Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-maydagi 282-son qarori bilan tasdiqlangan Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning qo‘riqlanma zonalarini to‘g‘risida nizomning 9-bandida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta‘minlash boshqarmasining 2021-yil 9-dekabrda 12/21-53-son dalolatnomasi). Bildirilgan taklif natijasida o‘simlik dunyosini muhofaza qilish maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning qo‘riqlanma zonalarida uning salbiy tas‘ir ko‘rsatadigan faoliyatni cheklash yoki ta‘qiqlash uchun yer uchastkalarini saqlash vazifasi belgilandi;

o‘simlik dunyosi obyektlari bo‘yicha olingan monitoring ma‘lumotlarini tizimlashtirishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish hamda o‘simlik dunyosi obyektlarini davlat kadastrini yuritish mexanizmini ta‘minlashga oid taklif Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi “Atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 343-son qarori bilan tasdiqlangan dasturda o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta‘minlash boshqarmasining 2021-yil 9-dekabrda 12/21-53-son dalolatnomasi). Ushbu taklif natijasida tegishli davlat organlari tomonidan o‘simlik dunyosi obyektlarini tabiiy ekotizmlardan kelib chiqqan holda monitoringini amalga oshirish, monitoring ma‘lumotlarini Yagona davlat kadastr tizimiga kiritish kabi muhim vazifalarni bajarishi belgilandi;

o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishni nazorat qiluvchi davlat organlarining funksiyalarini qonunchilikda mustahkamlash hamda Qizil kitobga kiritilgan yovvoyi o‘simliklardan foydalanish tartibini takomillashtirish va ulardan foydalanishda ruxsat berish mexanizmini huquqiy ta‘minlashga oid takliflar Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-oktyabrdagi 290-son qarori bilan tasdiqlangan O‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish va o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 69-bandida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta‘minlash boshqarmasining 2021-yil 9-dekabrda 12/21-53-son dalolatnomasi).

Ushbu taklif o‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish va ularni ko‘paytirish yuzasidan davlat nazoratini tizimli ravishda amalga oshirilishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta (11 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 256 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida ilmiy-tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslantirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti yoritilgan, shuningdek, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslantirilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan aloqadorligi, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish huquqining umumiy tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish huquqi tushunchasi, prinsiplari va yuridik tabiati, mavjud ilmiy-nazariy konsepsiyalar, O‘zbekiston Respublikasida o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish huquqi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan.

Bugungi kunda iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, sanoatlashuv darajasining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va shaharsozlikning rivojlanishi, tabiiy muhitga bo‘lgan antropogen ta‘sir va yuklamaning sezilarli oshishi natijasida o‘simlik dunyosi obyektlaridan g‘ayriqonuniy foydalanish, unga zarar yetkazish yoki yo‘q qilish kabi huquqbuzarliklar soni ortishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishni huquqiy ta‘minlash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Buning uchun fundamental qoidalar, doktrinalar va konsepsiyalar nazariy poydevor sifatida xizmat qilishi, shundagina inson, jamiyat va davlat manfaati uchun samarali bo‘lishini prognoz qilish mumkin.

Shu sababli, dissertatsiyada xorijiy va milliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari hamda tadqiqotlari tahlili natijasida o‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilishga nisbatan **doktrinal yondashuvlar** tasniflangan. Bunda **biologik, ijtimoiy** hamda **huquqiy** jihat va xususiyatlarga ega bo‘lgan tadqiqotlar sifatida uch guruhga ajratib ko‘rsatilgan. Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, ayrim olimlar tomonidan o‘simlik dunyosi va uni muhofaza qilish yuzasidan berilgan tushunchaning dastlabki qismi huquqiy jihatdan yondashilgan bo‘lsa, ikkinchi qismi sof biologik tushunchani o‘zida ifoda etadi. Zamonaviy ekologik konsepsiya tarafdorlari bo‘lgan xorij olimlari hamda so‘nggi besh yilda tadqiqot olib borgan milliy olimlar tomonidan berilgan ta’rifda o‘simlik dunyosini muhofaza qilishda hudud va maqsad nuqtai nazaridan yondashilganligini ko‘rish mumkin. MDH olimlari tomonidan berilgan ta’riflarda o‘simlik dunyosini o‘rmon tushunchasiga nisbatan va u bilan qiyoslagan holda bayon qilinganligi namoyon bo‘ladi. G‘arbiy Yevropa olimlarining ta’riflari davlatning mutloq muhofazasi nuqtai nazaridan ifoda etilganligi asoslantirilgan.

Shu sababli dissertant o‘simlik tushunchasiga huquqiy jihatdan yondashishda to‘rtta element: **maqsad, funksiya, hudud** va **maqom** jihatdan yondashuvni taqozo etadi, degan nuqtai nazarni ilgari surgan.

Dissertatsiyada milliy qonunchilikni takomillashtirish maqsadida, “o‘simlik”, “o‘simlik dunyosi obyektlari”, “o‘simlik dunyosini muhofaza qilish”, “o‘simlik dunyosidan foydalanish”, “o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning asosiy prinsiplari” kabi tushunchalarga ta’riflar ishlab chiqilgan va normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish taklif etilgan.

Bundan tashqari insoniyat o‘z tamaddunining eng qadimgi, ilk davrlaridayoq o‘simliklardan foydalanish va keyinchalik muhofaza qilish taraqqiyotini tadrijiy jihatdan shakllangan turli davrlarning huquqiy asoslari, qadimgi manbalar bayon qilingan va muhim jihatlari huquqiy jihatdan tahlil etilgan.

Tadqiqot jarayonida o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish huquqining tarixiy rivojlanishi va mavjud ekologik konsepsiyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishni huquqiy tartibga solish sohasidagi qonunchilikning tub burilishini ifodalovchi naturalistik konsepsiyasining ayrim elementlari mavjud bo‘lgan modernizatsiyalashuv bosqichi sifatida **2017-yildan hozirgi davrga qadar bo‘lgan ekologik siyosatdagi “renessans” jarayonlari ekanligini bayon etadi.**

Dissertant tomonidan tarixiy-tadrijiy bosqichlar u yoki bu davr xususiyatidan kelib chiqqan holda nazariyotchi olimlar, futuralistlar tomonidan ishlab chiqilgan turli ekologik konsepsiyalar yuzasidan mulohaza yuritilgan, ayrim nazariy konsepsiyalar tanqidiy tahlil qilinib, muhim mualliflik yondashuv va g‘oyalar bayon etilgan. Bunda O‘zbekistonda Respublikasida 2016-yilga qadar o‘simlik dunyosiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda “iste’molchilik konsepsiyasi” elementlari namoyon bo‘lganligi, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi ekologik siyosati umumiy mazmuniga ko‘ra “Baraqaqaror rivojlanish konsepsiyasi” qoidalari asosida shakllanayotganligi, zamonaviy “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini O‘zbekiston Respublikasiga tadbiiq qilishda o‘simlik dunyosi muhofaza obyekti sifatidagi e’tirof va munosabatlarning kengayib borishi, ushbu munosabatlarda o‘rmonning huquqiy holati,

ushbu huquqiy munosabatlarning bir yoki alohida huquqiy obyekt sifatida belgilanishi borasidagi masalalarning mavjudligi yuzasidan mustaqil pozitsiyalar bildirilgan. Yevropa Ittifoqi davlatlari (Daniya, Norvegiya, Finlandiya, Shveysariya) to'liq “naturalistik konsepsiya” elementlarini o'z qonunchiligiga singdirganligi, hududlarni zonalashtirishga urg'u berilganligi natijasida erishilgan ijobiy yutuqlari ularning qonunchilik tizimi orqali ifoda etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi davlat ekologik siyosatida ham mazkur konsepsiyaning elementlari uchrayotganligi tahlil qilingan. Bunga o'simliklardan foydalanishda o'rnatilgan “moratoriy” yoki “Yashil makon” umummilliy loyihasining tadbiri etilganligi yaqqol misol ekanligi qayd etilgan.

Disertatsiyada ustuvor g'oya sifatida - ekologik barqaror muhit, atmosfera, iqlim o'zgarishlariga ta'siri yuqori bo'lgan **o'simlik dunyosi obyektlarini huquqiy muhofaza qilishning aniq ekologik konsepsiya asosida ta'minlanishi**, pirovard maqsad bo'lmish kelajak avlodga sof ekologik tabiatni qoldirish, qolaversa, O'zbekistonga iqtisodiy manfaat keltiruvchi sohalarga investorlarni jalb qilish, turizm salohiyatini oshirish va davlatning tabiiy muhiti orqali jozibadorligini ko'rsatishni taqozo etishi bayon etilgan.

Bunda **“resurslarni tejash” (ресурсосбережение) modelini** keng doirada, ya'ni **barcha normativ-huquqiy hujjatlarga singdirish**, eng avvalo **ekologik ta'lim orqali joriy qilish** zarurati mavjudligi, natijada ekologik madaniyatning rivojlanishi va **o'simliklarni “muhofaza qiluvchi qonun emas, ong birlamchi” prinsipiga o'tish** imkoni yaratilishi muhimligi bildirilgan.

Dissertatsiyaning **konseptual jihatlaridan biri bu - o'simlik dunyosi muhofazasi zaminida o'rmonni ham tushunish, o'rmon mustaqil va alohida obyekt emasligi, o'rmon ham o'simlik dunyosi o'z ichiga qamrab olgan va uning tushunchasini nazarda tutuvchi muhofaza etiladigan tabiiy hudud maqomidagi tabiiy kompleks sifatida bayon etilishidir**. Shu sababli, mamlakatimizda o'rmonlar asosan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda joylashganligi, o'rmon bilan qoplangan hudud 2 %, o'rmon bilan qoplanmagan hudud 98% ni tashkil etishi, mazkur hududlardagi o'rmonlar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonunchilik bilan muhofaza qilinishini inobatga olib, **“O'rmon to'g'risida”gi Qonunni bekor qilib, uning normalarini tegishligicha “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida”gi hamda “O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida”gi qonunlarga kiritish maqsadga muvofiq degan taklif ilgari surilgan**.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish huquqining tashkiliy-huquqiy muammolari”ga bag'ishlanadi**. Bunda o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish huquqini davlat tomonidan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, ekologik talablarni ta'minlashning ilmiy-nazariy mohiyati, kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik dunyosini muhofaza qilish huquqini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari, o'simlik dunyosini muhofaza qilishda fuqarolik jamiyati institutining o'rnini va roli to'g'risida ilmiy tadqiqatlar amalga oshirilgan.

Mazkur bobda dissertant tomonidan aynan o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi o'ldiruvchi huquqiy masalalar tahlil etilgan.

Bugungi kunda mamlakatimiz o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida faoliyat yurituvchi davlat boshqaruvi organlarini ham umumiy va

maxsus vakolatli davlat organlariga bo'lish mumkin. Umumiy vakolatli davlat boshqaruvi organlariga Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyati organlari kiritiladi. Ushbu organlarning sohaga oid vakolatlari esa, ular faoliyatiga oid qonun hujjatlarida hamda ekologiya sohasiga oid qonun hujjatlarida belgilangan.

Xususan, 2019-yil 10-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunda ilk marotaba Hukumatning ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi 5 ta vakolati belgilab berildi (14-modda). Muallif tomonidan Vazirlar Mahkamasining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlarini hozirgi ekologik siyosat mazmunidan kelib chiqib qo'shimchalar bilan to'ldirish maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan.

Shu bilan birga, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning tahlili unda hokimlik va mahalliy kengashlarning atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha vakolatlari va mas'uliyati yetarli darajada mustahkamlanmaganligi yuzasidan tanqidiy fikrlar bildirilgan.

Shuningdek, Qonunning 24-moddasida xalq deputatlari Kengashining vakolatlari sifatida "har chorakda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish organlarining hududda atrof muhitni muhofaza qilish hamda "Yashil makon" umummilliy loyihasining amalga oshirilishi holati yuzasidan hisobotlarini eshitish"ni ham kiritish maqsadga muvofiqligini taklif etgan.

Ta'kidlash lozimki, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ekologiya sohasidagi vakolatlari konstitutsiyaviy vakolat hisoblanishini inobatga olib, hozirgi vaqtda yangi tahrirda ishlab chiqilayotgan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonun loyihasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini sohalarga ajratgan holda belgilash hamda bunda **ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlarini** alohida belgilash lozimligi bayon etilgan.

Dissertant o'simliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida davlat boshqaruvining tarqoqligi o'z navbatida mazkur faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini, maxsus qonunlar tahlili o'simlik dunyosini muhofaza qilish bilan bog'liq davlat siyosati ham Tabiat resurslari vazirligi, ham O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshirilishini ko'rsatayotganligini ifoda etgan va quyidagi ayrim muammolarni yechishda o'zining mustaqil pozitsiyasini bildirgan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son Farmoni asosida Tabiat resurslari vazirligi tashkil etilganligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. **Biroq, Tabiat resurslari vazirligi nomlanishi faqatgina tabiatdan resurs sifatida foydalanishni nazarda tutadi.** Bu borada ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqib, vazirlik nomida albatta, ekologiyani muhofaza qilish bilan bog'liq siyosatni singdirishimiz lozim. Qolaversa, ushbu vazirlik tizimiga O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi va Suv xo'jaligi vazirligi ham kiritilishi hamda ekologiya sohasida yagona, markazlashgan davlat boshqaruvini ta'minlovchi **Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish vazirligini** tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ushbu vazirlik ekologiya sohasidagi tarqoq boshqaruvni yagona tizimga solish hamda samarali harakat qilish imkonini beradi. Ekologiya masalalari bo'yicha yagona maxsus vakolatli davlat organi bo'lishi shubhasiz bir nechta davlat organining

takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarining oldini olishga hamda davlat ekologik siyosatining samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Bunday yagona davlat organi Fransiyada (Ekologiya, barqaror rivojlanish, transport va uy-joy qurilishi vazirligi), Germaniyada (Atrof muhitni muhofaza qilish, yadroviy xavfsizlik va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish vazirligi), Ozarbayjonda (Ekologiya va tabiiy resurslar vazirligi), Turkiyada (Tabiiy resurslar va energetika vazirligi), Yaponiyada (Atrof muhit vazirligi), Koreyada (Atrof muhitni muhofaza qilish vazirligi), Qozog'istonda (Ekologiya, geologiya va tabiiy resurslar vazirligi), Rossiya Federatsiyasida (Tabiiy resurslar va ekologiya vazirligi), Belarusda (Tabiiy resurslar va atrof muhitni muhofaza qilish vazirligi), Ukrainada (Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslar vazirligi), Armanistonda (Atrof muhit vazirligi), Qirg'izistonda (Tabiiy resurslar, ekologiya va texnik nazorat vazirligi) kabi ko'plab xorijiy davlatlarda yo'lga qo'yilgan.

Dissertatsiyada muallif tomonidan o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish huquqiga oid ekologik talablarni ta'minlashning ilmiy-nazariy mulohazalarini bayon etgan. Jumladan, o'simlik dunyosini muhofaza qilish biologik xilma-xillikni saqlash, tabiiy o'simlik resurslaridan oqilona foydalanish, zararli antropogen ta'sirlardan himoya qilishga yo'naltirilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar tizimidan iboratligi ifodalangan.

Tadqiqot jarayonida, ekologik qonunchilik tahlili amalga oshirilib, qonun hujjatlari tizimida "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun va "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) alohida o'rin tutishi, biroq mazkur qonunlardagi ayrim normalarning o'zaro nomuvofiqligi huquqni qo'llashda sohada qiyinchiliklarga olib kelayotganligi isbotlangan. Shu sababli, normalarni o'zaro muvofiqlashtirish maqsadida "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasi ("**O'simlik va hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanishga oid asosiy talablar**") hamda "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonun (yangi tahriri) 26-moddasi ("**O'simlik dunyosidan foydalanishga oid asosiy talablar**")ni yangi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiqligi taklif etilgan.

Ushbu Qonunlarda fuqarolarning (ular tashkil qiladigan jamoatchilik birlashmalarining) o'simlik dunyosi muhofaza qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi mexanizmi yetarlicha ochib berilmaganligi huquqiy jihatdan tahlil etilgan.

Dissertant quyidagicha amaliy takliflarni bildirgan holda boshqaruv mexanizmini takomillashtirish lozimligini bayon etgan: "Maxsus vakolatli davlat organlarining davlat ekologik nazorati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Tabiat resurslari vazirligi huzurida ularning vakillaridan iborat muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil qilinadi. Huquqni qo'llash amaliyotida ushbu muvofiqlashtiruvchi kengashning faoliyati samaradorligi yetarli darajada emas. Ayniqsa o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat ekologik nazorati Tabiat resurslari vazirligidan tashqari Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ham amalga oshirilishini inobatga olib, muvofiqlashtiruvchi kengashni maqomini takomillashtirish, xususan, uni **Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat ekologik nazorati sohasidagi maxsus vakolatli**

davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash sifatida tashkil etish taklif etiladi. Bunda muvofiqlashtiruvchi kengash raisi vazifasi tabiat resurslari vaziri zimmasiga yuklatiladi. Muvofiqlashtiruvchi kengash zaruratga ko‘ra, lekin har oyda kamida bir marotaba yig‘ilishi, yig‘ilishda davlat ekologik nazorati natijalari muhokama qilinishi hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqishini belgilash maqsadga muvofiq.”

Dissertatsiyada o‘simlik dunyosini muhofaza qilishda **ekologik ekspertiza** instituti ham muhim ahamiyatga egaligi bayon etilgan va ayrim mulohazalar bildirilgan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkaziladigan faoliyat turlarining ro‘yxatida “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 29-moddasida belgilangan o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish bilan bog‘liq davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan loyihalar nazarda tutilmagan. Shuni inobatga olib, **Davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkaziladigan faoliyat turlarining ro‘yxatini “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiqlashtirish maqsadida ushbu ro‘yxatga tegishli qo‘shimcha kiritish maqsadga muvofiqligi bayon etilgan.**

O‘simlik dunyosi obyektlarining **davlat kadastri** o‘simlik dunyosining muhofaza qilinishini va undan oqilona foydalanilishini ta‘minlash maqsadida Tabiat resurslari vazirligi tomonidan Fanlar akademiyasi bilan birgalikda yuritiladi.

Disertant aynan shu masalada, ilg‘or xorijiy tajriba asosida kelgusida barcha tabiiy resurslar bo‘yicha yuritiladigan tarmoqlararo axborot tizimi sifatida **Tabiiy resurslar kadastrlarining yagona elektron tizimini joriy etish lozimligini ta‘kidlaydi.** Bunda tabiiy resurslar kadastrlarining yagona elektron tizimi barcha tabiiy resurslar – yer, suv, o‘rmon, yer qa‘ri, atmosfera havosi, o‘simlik va hayvonot dunyosi bo‘yicha yuritilishi, ushbu tizimda tabiiy obyektlarning joylashuvi (geografik ko‘rsatkichlari, ma‘muriy-hududiy tegishliligi va boshqa ma‘lumotlar), ularning xo‘jalik maqomi (kimga tegishli, qaysi hujjat asosida, qancha muddatga foydalanishga berilgan va boshqalar), miqdori to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, statistik hisobotlar va boshqa zarur ma‘lumotlar kiritilishi zarurligini izohlaydi.

O‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish chora-tadbirlaridan yana biri bu – **o‘simlik dunyosi monitoringi** hisoblanadi. Ta‘kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi to‘g‘risida nizomning 2-bandida “atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi” tushunchasiga biroz boshqacha ta‘rif berilgan. Xususan, Qonun va Nizomni o‘zaro taqqoslaydigan bo‘lsak, Qonunda monitoring “kuzatish, aniqlash, baholash va prognoz qilish” sifatida, Nizomda esa, “tabiiy resurs holatini va undagi o‘zgarishlarni kuzatish tizimi” sifatida ta‘riflangan.

Umuman olganda, tabiiy resurslar monitoringi bilan bog‘liq boshqa hujjatlarni o‘rganish monitoringga turlicha ta‘riflar berilganligini ko‘rishimiz mumkin, masalan: “o‘zgarishlarni aniqlash, baholash va prognoz qilishga doir muntazam kuzatuvlardan iborat axborot tizimi”, “kuzatish, axborot yig‘ish, to‘plash, qayta ishlash, tahlil qilish, chamalash, o‘zgarishlarni prognoz qilish”, “o‘zgarishlarni aniqlash, baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish maqsadida kuzatib borish tizimi” kabi tushunchalardir. Muallifning fikricha, bu borada yagona yondashuvni ta‘minlash maqsadida tabiiy resurslar monitoringi bilan bog‘liq barcha hujjatlarni yagona hujjatga

tizimlashtirish hamda **tabiiy resurslar monitoringi bo'yicha alohida qonun hujjatini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq.**

Dissertant tomonidan o'simlik dunyosi tarkibida kamyob va yo'qolib borayotgan o'simlik dunyosi alohida va muhim o'rinni egallaganligi sababli uning huquqiy maqomi ajratib ko'rsatilgan. Shu sababli, muallif kamyob va yo'qolib borayotgan o'simlik dunyosi obyektlarini quyidagicha tasniflaydi: yo'qolish arafasidagi turlar – bir necha yillar davomida tabiatda uchratilmagan hamda faqatgina ayrim yig'ib olish qiyin bo'lgan joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlanib qolish ehtimoliga ega bo'lgan o'simlik turlari; **yo'qolib borayotgan turlari** – yo'qolib ketish xavfi ostida turgan, saqlab qolish uchun maxsus muhofazani talab etadigan turlar; **kamyob turlar** – o'ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, o'simlik dunyosi obyektlari ichida alohida qimmatga ega bo'lgan, tez yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan kam uchraydigan o'simlik turlari; **kamayib borayotgan turlar** – ma'lum vaqt ichida soni va tarqalgan maydonlari tabiiy sabablarga ko'ra yoki insonlar ta'siri ostida qisqarib ketayotgan turlar bo'lib, ular har tomonlama nazorat qilib turishni talab etadi.

Bundan tashqari, kamyob va yo'qolib borayotgan o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilishda quyidagi huquqiy chora-tadbirlar alohida e'tiborga molikligini e'tirof etadi:

1) o'simlik dunyosining obyektlarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish va ularni takror yetishtirish qoida va me'yorlarini zamon talabiga mos ravishda ishlab chiqish;

2) O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik dunyosining tarqalish arealini yoki o'sish sharoitlarini alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni yaratish orqali amalga oshirish;

3) o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishni cheklash va taqiqlash;

4) davlat va jamoat nazoratini hamda ekologik ekspertizani kuchaytirish, huquqbuzarlarga nisbatan yuridik javobgarlik choralarini qo'llash mexanizmini takomillashtirish;

5) ilmiy-tadqiqot, ma'rifiy-madaniy, o'quv-uslubiy ishlarni talab darajasida yo'lga qo'yish va ijobiy natijalarni ommalashtirish.

Tadqiqot ishida ushbu alohida e'tibor talab etiladigan o'simlik dunyosini muhofaza qilishda ekologik nazoratning muhim turi – **jamoatchilik ekologik nazoratiga** urg'u beriladi. So'nggi 2-3 yil ichida jamiyatimizda "moratoriy", "noqonuniy daraxt kesish", "kesilgan daraxt uchun zarar qoplandi" qabilidagi ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlar orqali juda tez tarqalayotganligi, o'simlik dunyosini muhofaza qilish yoki undan foydalanish bilan bog'liq masalalarda fuqarolarimiz o'z pozitsiyalarini ochiq-oydin bildirayotganligi, aniqlangan holatlar yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda choralar ko'rilayotganligi ijobiy holat sifatida ko'rsatilgan. Mazkur jarayonlarda jamoatchilik nazorati, xususan, jamoatchilik ekologik nazorat instituti jadallashayotganligi ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish imkonini yaratayotganligi izohlangan.

Shularni inobatga olib, tadqiqotchi tomonidan jamoatchilik ekologik nazorati imkoniyatlarini yanada kengaytirish va kuchaytirish maqsadga muvofiqligini, xususan, **jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida namunaviy nizomni tubdan qaytadan ko'rib chiqib, uni namunaviy nizom emas, balki nizom**

sifatida qabul qilish lozimligini taklif etgan. Ushbu hujjat loyihasida jamoatchilik ekologik nazoratining har bir shaklini amalga oshirish tartib-taomillarini, jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirayotgan fuqarolar, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakillarining huquq va majburiyatlari, ekologik masala bo‘yicha qaror qabul qilayotgan mansabdor shaxsning qaror qabul qilishidan oldin, albatta, jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazishi lozimligi to‘g‘risidagi qoidalarni batafsil yoritib berish zarurligi bildirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**O‘simlik dunyosidan foydalanishni huquqiy ta‘minlash mexanizmlari**”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tadqiqotchi tomonidan **o‘simlik dunyosi obyektlariga nisbatan mulk huquqi va ulardan foydalanish turlarining ekologik-huquqiy tavsifi, o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilarning huquqiy maqomi, o‘simlik dunyosidan foydalanishga oid asosiy talablarni huquqiy ta‘minlashga oid masalalar tadqiq qilingan.**

Ushbu bobda O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar tufayli xususiy mulk asosida fuqarolar va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan obyektlar ro‘yxati sezilarli ravishda kengayotganligi, **o‘simlik dunyosi obyektlari ham shular jumlasidan ekanligi bayon etilgan.**

Dissertant fikricha, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahririda qabul qilinganda, uning 4-moddasida tabiiy muhitda yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklar davlat mulki ekanligi bilan bir qatorda, sun‘iy yaratilgan sharoitlarda yetishtiriladigan yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklar yuridik yoki jismoniy shaxsning mulki bo‘lishi mumkinligi ham nazarda tutilganligini, ya‘ni, Qonunning yangi tahririda yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklarga nisbatan xususiy mulk huquqi instituti ham tan olinganligini huquqiy jihatdan isbotlagan.

Jumladan, sun‘iy yaratilgan sharoitlarda yetishtiriladigan barcha yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklar ham xususiy mulk huquqi obyekt bo‘lavermasligini, shu sababdan ham Qonunning yangi tahririda imperativ norma belgilanmaganligi hamda bunday o‘simliklar yuridik va jismoniy mulki “bo‘lishi mumkin” degan dispozitiv qoidani belgilash bilan cheklanilganligiga tanqidiy yondashilgan.

Shundan kelib chiqib, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahriri) 32-moddasi to‘rtinchi xatboshisiga quyidagi tushuncha bilan to‘ldirish taklif qilingan: “**sun‘iy yaratilgan sharoitlarda yetishtirilgan** yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklarga va ularning yashash faoliyati mahsulotlariga nisbatan **qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda** mulk huquqiga ega”.

Dissertant tomonidan o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishga oid ekologik talablarning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatgan holda tasniflagan:

Birinchi, ekologik talablar o‘zida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan foydalanishga oid majburiy qoidalarni belgilab beradi;

Ikkinchi, ekologik talablar nafaqat ekologik qonunchilikda, balki boshqa qonunchilikda ham belgilanadi va shu tariqa tarmoqlararo, komplekslilik xususiyatini kasb etadi;

Uchinchi, ekologik talablar tabiiy resurslardan foydalanish huquqini amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi hamda unga rioya etmaslik foydalanish huquqining cheklanishi yoki bekor bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin;

To'rtinchi, ekologik talablar amaldagi qonunchilikda texnik, fizikaviy, kimyoviy, biologik, akustik, texnologik, gidrologik va boshqa preventiv xususiyatga ega bo'lgan me'yorlar sifatida aks etadi;

Beshinchi, ekologik talablar tabiatdan foydalanuvchilar va maxsus vakolatli davlat organlari zimmasiga o'simlik dunyosi obyektlarining holatini saqlab qolish va yaxshilash, qayta tiklash, ko'paytirish bo'yicha majburiyat yuklaydi.

Shu bilan birga "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 37-moddasida davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni binolarni, inshootlarni va kommunikatsiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish bilan bog'liq holda kesishga yo'l qo'yilishi belgilangan. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son Farmoni bilan davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirilgan. Shu munosabat bilan "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 37-moddasida **daraxtlar va butalarni binolarni, inshootlarni va kommunikatsiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish bilan bog'liq holda kesishga yo'l qo'yilmasligi** to'g'risidagi qoidani belgilash maqsadga muvofiq.

"O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunda "o'simlik dunyosi obyektlari doimiy yoki vaqtincha (uzoq muddatli va qisqa muddatli) foydalanishga berilishi mumkin"ligi nazarda tutilgan. Biroq, amaldagi qonunchilik tahlili o'simlik dunyosidan doimiy va vaqtinchalik foydalanish tartibi, shu jumladan, uzoq va qisqa muddatli foydalanishning muddatlari to'g'risidagi masala tartibga solinmaganligini ko'rsatmoqda.

"O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasi tahlili asosida o'simlik dunyosi obyektlaridan ovchilik va (yoki) baliq ovlash xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish, o'simlik dunyosi obyektlaridan ilmiy va nazorat ishlarini o'tkazish, madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekreatsiya va estetik yoki tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanish, shuningdek, botanika kolleksiyalarini yaratish va to'ldirib borish uchun foydalanish muddatsiz bo'lishi mumkinligi to'g'risida xulosaga kelish imkonini beradi.

Dissertantning fikricha, qonunchilikdagi ushbu bo'shliqni bartaraf etish hamda o'simlik dunyosi obyektlaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunni **30¹-modda (O'simlik dunyosi obyektlaridan doimiy yoki vaqtincha foydalanish)** bilan to'ldirish maqsadga muvofiqligi bildirilgan.

Ta'kidlash lozimki, o'simlik dunyosidan foydalanishga oid ekologik talablarni tasniflash ham muhim nazariy ahamiyatga ega. Shu sababli dissertant **ekologik talablarni quyidagicha tasniflash** maqsadga muvofiqligini bayon etadi: 1) yuridik tabiatiga ko'ra – tabiiy resurslardan foydalanishga oid ekologik talablar; atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid ekologik talablar; 2) xususiyatiga ko'ra – umumiy ekologik talablar (barcha tabiiy obyektlar uchun taalluqli bo'lgan ekologik talablar; maxsus ekologik talablar (har bir tabiiy resursdan foydalanish uchun belgilanadigan alohida ekologik talablar); 3) mazmuniga ko'ra – texnikaviy ahamiyatga ega bo'lgan

ekologik talablar; atrof muhitga ta'sirga oid ekologik talablar; 4) shakliga ko'ra – qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar normalarida belgilangan ekologik talablar; ekologik me'yorlar; limitlar, kvotalar; ekologik standartlar; 5) subyektlariga ko'ra ekologik talablar – tabiatdan umumiy foydalanuvchilar uchun belgilangan ekologik talablar; tabiatdan maxsus foydalanuvchilar uchun belgilangan ekologik talablar; 6) tabiiy resurslardan foydalanuvchi uchun ahamiyatiga ko'ra – muayyan harakatlarni sodir etishni ko'zda tutuvchi pozitiv (ijobiy) ekologik talablar; muayyan harakatlarni sodir etishni ta'qiqlovchi negativ (salbiy) ekologik talablar.

Tadqiqot ishining to'rtinchi bobida **“O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish huquqini ta'minlash vositasi sifatida yuridik javobgarlik masalalari”** yoritilgan.

Tadqiqot asosida, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar ham ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar singari to'rt turga tasniflaydi. Shuningdek, har bir huquqbuzarliklar kesimida ilmiy-nazariy fikrlarni keltirib o'tadi.

Muallif o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarni quyidagi ikki turga tasniflash mumkin deb ta'kidlaydi:

Birinchi “Bevosita ma'muriy huquqbuzarlik” - o'simlik dunyosi obyektlariga bevosita taalluqli ma'muriy huquqbuzarliklarga Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarni yig'ish, o'simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa dorilarni tashish, saqlash va qo'llanish qoidalarini buzish, Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar turlarini saqlashga zarar keltiradi deb topilgan hayvonlar yoki o'simliklarni qonunga xilof ravishda olib kelish kabi huquqbuzarliklarni kiritish mumkin;

Ikkinchi “Bilvosita ma'muriy huquqbuzarlik” - o'simlik dunyosi obyektlariga taalluqli bo'lgan ma'muriy huquqbuzarliklarni kiritish mumkin.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son Farmoni 2-bandida davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesganlik uchun huquqbuzarlarga ma'muriy jarimalar miqdori besh baravarga oshirilgan holda qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 1-moddasida ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari ham kiritilgan. Tadqiqotchining fikricha, huquqni qo'llash amaliyotida sudlar tomonidan ushbu Farmon normalarini qo'llashda tushunmovchiliklar kelib chiqmoqda. Chunki, sudlar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muvofiq, ushbu Kodeksda belgilangan jazodan yuqori jazoni qo'llay olmaydi.

Shu munosabat bilan hozirgi vaqtda moratoriy muddatsiz joriy etilganligi, ya'ni mazmunan doimiy taqiq o'rnatilganligini inobatga olib, **Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 79-moddasi birinchi va ikkinchi qismining sanksiyasida ma'muriy jarimaning miqdorini besh barobarga oshirish lozimligi taklif etilgan.**

Dissertatsiyaning so'nggi bobi **“O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish huquqi sohasida xalqaro tajriba va undan O'zbekiston**

Respublikasida flora qonunchiligini takomillashtirishda foydalanish istiqbollari

Ushbu bobda o‘simlik dunyosini muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun xo‘jalik, boshqaruv hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida milliy, regional va xalqaro manfaatlarni uyg‘unlashtirish lozimligi, bu borada xalqaro huquqiy hujjatlar muhim o‘rin egallashi e’tirof etiladi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 53-moddasida “Basharti, O‘zbekiston Respublikasi tuzgan xalqaro shartnomada ushbu Qonundagidan yoki O‘zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa qonun hujjatidagidan o‘zga qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida birmuncha qattiqroq talablar belgilangan hollar bundan mustasno” deb ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasida “Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.”

Dissertant mazkur ikki Qonunning normalarini o‘zaro muvofiqlashtirish lozimligini, bunda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunda bayon qilingan normani tegishli ekologik qonunchilik hujjatlarida aks ettirish zarurligini qayd etadi. Bundan tashqari Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi flora va fauna turlarining xalqaro savdosi to‘g‘risida”gi konvensiya (CITES) hamda milliy qonunchilik tizimi bilan bog‘liq mulohazalar bildirilgan.

Bundan tashqari, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi va “O‘rmon to‘g‘risida”gi qonunlarni xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda qayta ko‘rib chiqish va yagona qonun sifatida qabul qilish, shaharlarda uning infratuzimasidan qat’iy nazar Germaniya, Avstriya, Italiya davlatlaridagi kabi “yadro zona”, “tabiiy zona”, “A” zona kabi huquqiy maqomga ega bo‘lgan qattiq rejimdagi hududlarni qonun darajasida belgilash va mazkur hududlarni faqat hukumat va jamoatchilik kengashlari boshqaruvi doirasida bo‘lishini ta’minlash, o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibi va ruxsat berish xususiyatiga ega bo‘lgan normalar faqat qonunda belgilanishini ta’minlash, ayrim ekologik munosabatlarda subyektiv xarakterga ega bo‘lgan va foydalanuvchilarning teng huquqlilik prinsipiga zid bo‘lgan qonun osti hujjatlarni bekor qilish kabi takliflar bildirilgan.

Muallif bir nechta xorijiy davlatlar: Xitoy, Singapur, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Polsha, Avstriya, Shveysariya, Norvegiya, Avstraliya, Litva, Latviya, Estoniya, Rossiya Federatsiyasi, Balarus Respublikasida o‘simlik dunyosini muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish tajribasini tahlil qilgan holda, ushbu davlatlarda turli modellar ilgari surilishini, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish natijasida ularda huquqiy tartibga solishning **uch modeli mavjudligini** ko‘rsatdi.

Birinchi model - o‘simlik dunyosini muhofaza qilish bo‘yicha hajmi katta maxsus qonun va me’yoriy-huquqiy hujjatlarning butun boshli guruhiga ega bo‘lishi;

Ikkinchi model - o‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilishga qaratilgan maxsus qonunning Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo-sotiq qilish to‘g‘risidagi Konvensiya (CITES) asosiga qurilgani bilan ahamiyatli bo‘lishi;

Uchinchi model - o‘simlik dunyosini muhofaza qilishni tartibga soladigan yaxlit (federal) qonun hujjatining yo‘qligi va ayrim jihatlari tabiiy obyektlarga tegishli katta miqdordagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi.

Dissertant tomonidan O‘zbekiston Respublikasida o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish huquqiga oid qonunchilikni takomillashtirish istiqbollarini dissertatsiyaga ilova qilingan **“O‘zbekiston Respublikasining 2023-2028 yillariga mo‘ljallangan o‘simlik dunyosini muhofaza qilish Konsepsiyasi”**ni ro‘yobga chiqarish hamda quyidagi institutlarni rivojlantirish orqali ifodalaydi:

birinchidan, o‘simliklarni muhofaza qilish muhim chorasini bu - ularni yaxlit hududga ajratgan holda muhofazasini ta‘minlash, ya‘ni zonalashtirish ekanligi;

ikkinchidan, mamlakatimizda o‘simlik dunyosini muhofazalash uchun barqaror rivojlanish konsepsiyasidan qoidalarini to‘liq joriy etish kerakligi, bu esa jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarini muvozanatga keltirishga xizmat qilishi;

uchinchidan, bugungi kunda ekologik huquqiy munosabatlarning raqamlashtirishga oid islohotlar asosan avtomatlashtirish bilan cheklanib qolinayotganligi hamda galdagi maqsad sohani sun‘iy intellekt orqali tartibga solish konsepsiyasi asosida tashkil etish muhimligi;

to‘rtinchidan, atrof-muhitga, xususan o‘simlik dunyosiga oid ma‘lumotlarni kiber tahdidlardan himoyalash, kibermudofaa vositalari atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga muvofiqligini ta‘minlanishi lozimligi, shu sababli O‘zbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligiga kiberxavfsizlik masalalarini joriy etish lozimligini taklif etadi.

XULOSA

O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy tartibiga oid huquqni qo‘llash amaliyoti, sohaga oid yuridik adabiyotlar, statistik ma‘lumotlar hamda xorijiy davlatlar qonun hujjatlarini o‘rganish va tahlil qilish o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy masalalariga oid quyidagi ilmiy-nazariy qoidalar va amaliy takliflar ishlab chiqilishiga asos bo‘ldi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1.1. O‘simliklar tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta‘rifi berildi: “tabiiy muhitda o‘sadigan yoki sun‘iy yaratilgan sharoitlarda yetishtiriladigan daraxtlar, butalar, o‘tsimonlar, qirqquloqsimonlar, yo‘sinsimonlar, suvo‘tlar, lishayniklar va zamburug‘lar hamda ularning yashash faoliyati natijasida hosil bo‘ladigan mahsulotlar”.

1.2. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunda “o‘simlik dunyosi” va “yovvoyi holda o‘suvi o‘simliklar” tushunchasi qo‘llanilgan holda “o‘simlik” tushunchasi qo‘llanilmaganligini inobatga olib, mazkur Qonunning 3-moddasida o‘simlik tushunchasini yuqoridagi tahrirda aks ettirish

maqsadga muvofiq.

1.3. O‘simlik dunyosi muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik funksiyalarni bajarishi asoslantirib berildi. Bunda o‘simliklarning: a) *ijtimoiy funksiyasi* – estetik, sog‘lomlashtiruvchi, rekreatsion, madaniy va ilmiy-tadqiqot maqsadlari uchun qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi; b) *iqtisodiy funksiyasi* – pichan o‘rish, chorva o‘tlatish, meva tayyorlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, farmasevtika, ov, sport, asalarichilik va ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida foydalanishda namoyon bo‘ladi; v) *ekologik funksiyasi* – atmosfera havosini kislorod bilan to‘yintirish, suvni muvozanatlashtirish, tuproqning unumdor qatlamini shakllantirish, eroziyaning oldini olish va boshqa muhim ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan xossalari bilan belgilanadi.

1.4. O‘simlik dunyosini muhofaza qilish tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifi berildi: “o‘simliklarning yashash muhitining qulay va xavfsiz shart-sharoitlarini yaratish orqali ularning ko‘payishini ta’minlashga, o‘simliklar kamayib yoki yo‘q bo‘lib ketishining oldini olishga, o‘simlik dunyosiga salbiy, zararli ta’sirini cheklagan, o‘simliklardan foydalanish darajasini tartibga solgan holda ularning kamayib va (yoki) yo‘q bo‘lib ketishining oldini olish, tabiiy holatini yaxshilash hamda ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan huquqiy, tashkiliy-xo‘jalik, texnik, meliorativ va iqtisodiy chora-tadbirlar majmui”.

1.5. O‘simlik dunyosidan foydalanish tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifi berildi: “qonunchilik talablariga muvofiq jamiyatning ekologik, iqtisodiy va madaniy va boshqa ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadida o‘simlik dunyosining foydali xossalari o‘zlashtirish, shu jumladan, o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanib, xo‘jalik va ishlab chiqarishni amalga oshirish faoliyati”.

1.6. Kamyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik dunyosi obyektlarini quyidagicha tasniflash mumkin: *yo‘qolish arafasidagi turlar* – bir necha yillar davomida tabiatda uchratilmagan hamda faqatgina ayrim yig‘ib olish qiyin bo‘lgan joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlanib qolish ehtimoliga ega bo‘lgan o‘simlik turlari; *yo‘qolib borayotgan turlari* – yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan, saqlab qolish uchun maxsus muhofazani talab etadigan turlar; *kamyob turlar* – o‘ziga xos sharoitlarda o‘ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, o‘simlik dunyosi obyektlari ichida alohida qimmatga ega bo‘lgan, tez yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan kam uchraydigan o‘simlik turlari; *kamayib borayotgan turlar* – ma’lum vaqt ichida soni va tarqalgan maydonlari tabiiy sabablarga ko‘ra yoki insonlar ta’siri ostida qisqarib ketayotgan turlar bo‘lib, ular har tomonlama nazorat qilib turishni talab etadi.

1.7. O‘simlik dunyosini muhofaza qilishni zonalashtirishning funksiyalarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

Birinchi funksiya - fuqarolarning toza ekologik muhitda yashashini ta’minlovchi tabiiy muhitdagi o‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish;

Ikkinchi funksiya - kamayib borayotgan o‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish jihatdan ekologik tahdid va inqirozdagi hududlarning xavfsizligini ta’minlash.

1.8. Ekologik talablarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq: 1) *yuridik tabiatiga ko‘ra* – tabiiy resurslardan foydalanishga oid ekologik talablar; atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid ekologik talablar; 2) *xususiyatiga ko‘ra* – umumiy ekologik talablar (barcha tabiiy obyektlar uchun taalluqli bo‘lgan ekologik talablar;

maxsus ekologik talablar (har bir tabiiy resursdan foydalanish uchun belgilanadigan alohida ekologik talablar); 3) *mazmuniga ko'ra*, ekologik talablar – texnikaviy ahamiyatga ega bo'lgan ekologik talablar; atrof muhitga ta'sirga oid ekologik talablar; 4) *shakliga ko'ra*, ekologik talablar – qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar normalarida belgilangan ekologik talablar; ekologik me'yorlar; limitlar, kvotalar; ekologik standartlar; 5) *suby'ektlariga ko'ra* ekologik talablar – tabiatdan umumiy foydalanuvchilar uchun belgilangan ekologik talablar; tabiatdan maxsus foydalanuvchilar uchun belgilangan ekologik talablar; 6) *tabiiy resurslardan foydalanuvchi uchun ahamiyatiga ko'ra* – muayyan harakatlarni sodir etishni ko'zda tutuvchi pozitiv (ijobiy) ekologik talablar; muayyan harakatlarni sodir etishni ta'qiqlovchi negativ (salbiy) ekologik talablar.

1.9. O'zbekiston Respublikasining o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi ekologik siyosatidan kelib chiqib, ilmiy konsepsiyalar tahlil qilindi va quyidagicha mualliflik pozitsiya bildirildi:

1. O'simlik dunyosining 2 ta muhim yo'nalishi – o'simlik dunyosini muhofaza qilish hamda o'simlik dunyosidan foydalanish jihatlariga yo'naltirilgan hamda huquqiy doktrinalarni o'zida ifoda etgan konsepsiyalar mavjud.

2. O'zbekiston Respublikasining o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi ekologik siyosati “*yashil iqtisodiyot konsepsiyasi*” va “*naturalistik konsepsiya*” elementlarini ifoda etgan “*Baraqaqaror rivojlanish konsepsiyasi*” qoidalari asosida shakllanmoqda.

1.10. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning 7 ta asosiy prinsiplari ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasining “O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida” Qonunini quyidagi tahrirdagi 3¹-modda bilan to'ldirish maqsadga muvofiqligi asoslab berildi:

“3¹-modda. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning asosiy prinsiplari

O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

o'simlik dunyosining foydali xususiyatlarini saqlab qolish;

o'simlik dunyosi obyektlaridan o'zboshimchalik bilan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi;

o'simlik dunyosidan oqilona, kompleks va atrof-muhitga zarar keltirmaydigan usullar yordamida foydalanishni rag'batlantirish;

biologik xilma-xillikni saqlab qolish ustuvorligi va o'simlik dunyosini takroran ko'paytirish;

o'simlik dunyosidan maxsus foydalanishni haq evaziga amalga oshirish;

kamyob va yo'qolib borayotgan o'simlik dunyosi obyektlarining alohida muhofaza ostiga olinishi;

o'simlik dunyosini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarda jamoatchilik ishtiroki”.

II. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan taklif va tavsiyalar:

2.1. “O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida”gi

Qonun va Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-oktyabrdagi 290-son qarori bilan tasdiqlangan O‘simlik dunyosi obyektlarini olib kirish va chetga olib chiqib ketishda ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risidagi nizomda belgilangan o‘simlik dunyosi obyektlari ro‘yxatini o‘zaro muvofiqlashtirish maqsadida “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etildi:

“5-modda. O‘simlik dunyosi obyektlari
O‘simlik dunyosi obyektlari quyidagilardan iborat:
yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklar;
yovvoyi organizmlardan tashkil topadigan tabiiy o‘simlik guruhlari yoki ularning har qanday majmui;

yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarning mevalari, urug‘lari va boshqa qismlari yoki ularning o‘sish davridagi va yashash faoliyati mahsulotlari;
kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi o‘simlik turlari;
botanika kolleksiyalari.”

2.2. O‘simlik dunyosi obyektlarining rivojlanishi uchun ularning yashash muhiti sifati muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunining 35 va 35¹-moddalarida suvdan foydalanuvchilar va suv iste‘molchilarining majburiyatlari sifatida “o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarining yashash muhiti sifatini yomonlashtirmaslik” majburiyatini ham belgilash maqsadga muvofiq.

2.3. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida” Qonunning “Daraxtlar va butalarni kesish” deb nomlangan 37-moddasini quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq: “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarini kesishga yo‘l qo‘yilmaydi”.

2.4. Mamlakatimizda o‘rmonlar asosan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda joylashganligi hamda mazkur hududlardagi o‘rmonlar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunchilik bilan muhofaza qilinishini inobatga olib, “O‘rmon to‘g‘risida”gi Qonunni bekor qilib, uning normalarini tegishligicha “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi hamda “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlarga kiritish maqsadga muvofiq (Qonun loyihasi ilova qilinmoqda).

2.5. “O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasida Vazirlar Mahkamasining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlarini quyidagi mazmundagi qo‘shimchalar bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq:

“biologik xilma-xillikni ta‘minlash, o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ularning yashash muhitini saqlash, qayta tiklanishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni ta‘minlaydi;

respublikada daraxtlar, butalar va yashil hududlarni muhofaza qilish hamda ularning maydonlarini kengaytirish, qimmatbaho navli daraxt va butalar muhofazasini tashkil etish choralarini ko‘radi, shuningdek, “Yashil makon” umummilliy loyihasini respublika miqyosida samarali amalga oshirilishini ta‘minlaydi;

investitsion faollik, sanoat ishlab chiqarish, qurilish va urbanizatsiya ko‘lamining kengayishi natijasida aholi punktlariga tushayotgan ekologik yuklamani kamaytirish choralarini ko‘radi”.

2.6. “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasida xalq deputatlari Kengashining vakolatlari sifatida “har chorakda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish organlarining hududda atrof muhitni muhofaza qilish hamda “Yashil makon” umummilliy loyihasining amalga oshirilishi holati yuzasidan hisobotlarini eshitish”ni ham kiritish maqsadga muvofiq.

2.7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ekologiya sohasidagi vakolatlari konstitutsiyaviy vakolat hisoblanishini inobatga olib, hozirgi vaqtda yangi tahrirda ishlab chiqilayotgan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun loyihasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini sohalarga ajratgan holda belgilash hamda bunda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlarini alohida belgilash lozim.

2.8. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahriri) hamda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunlarni o‘zaro muvofiqlashtirish maqsadida “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 21-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“21-modda. O‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanishga oid asosiy talablar

O‘simlik dunyosidan foydalanishga oid asosiy talablar quyidagilardan iborat:

o‘simlik dunyosining turlari xilma-xilligini, qayta tiklanish qobiliyatini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish;

o‘simlik dunyosi o‘sadigan muhitni saqlab qolish;

o‘simlik dunyosidan oqilona foydalanish, uni tiklash va takror ko‘paytirish;

yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarning tarqalishini va sonini tartibga solish;

atrof muhitning biologik jihatdan ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Hayvonot dunyosidan foydalanishga oid asosiy talablar quyidagilardan iborat:

yovvoyi hayvonlarning tur bo‘yicha xilma-xilligini va ular tabiiy galalarining hamda zotga oid turlarining bir butunligini, to‘dalarining barqarorligini hamda ko‘payish qobiliyatini tabiiy erkinlik holatida saqlab qolish;

yovvoyi hayvonlarning yashash muhiti, urchish joylari va ko‘chib o‘tish yo‘llarini saqlab qolish;

yovvoyi hayvonlardan oqilona foydalanish, ularni tiklash va takror ko‘paytirish;

yovvoyi hayvonlarning sonini tartibga solish”.

2.9. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahriri) 26-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“26-modda. O‘simlik dunyosidan foydalanishga oid asosiy talablar

O‘simlik dunyosidan foydalanishga oid asosiy talablar quyidagilardan iborat:

o‘simlik dunyosining turlari xilma-xilligini, qayta tiklanish qobiliyatini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish;

o‘simlik dunyosi o‘sadigan muhitni saqlab qolish;

o‘simlik dunyosidan oqilona foydalanish, uni tiklash va takror ko‘paytirish;

yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarning tarqalishini va sonini tartibga solish;

atrof muhitning biologik jihatdan ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik”.

2.10. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksni quyidagi mazmundagi 79²-modda bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:

“79²-modda. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha taqiqlarni buzish

O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha taqiqlarni buzish, shu jumladan, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga oid talablarga javob bermaydigan ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish hamda texnologiyalarni qo'llash, kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar turlarining soni kamayib ketishiga yoki ularning o'sadigan muhiti buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni sodir etish, –

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi”.

2.11. “Ekologik nazorat to'g'risida” Qonunning 20-moddasida rejali va rejadan tashqari tekshirishlar hamda reydtartibidagi ekologik nazoratning huquqiy maqomini belgilash maqsadga muvofiq.

2.12. “Ekologik nazorat to'g'risida”gi Qonun va Ishlab chiqarish ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida namunaviy nizom o'rtasida o'zaro muvofiqlikni ta'minlash hamda ushbu sohadagi munosabatlarning qonuniy asoslarini kuchaytirish maqsadida “Ekologik nazorat to'g'risida”gi Qonunning 14-moddasiga xo'jalik yurituvchi subyektlarning ekologik nazorat sohasidagi majburiyatlarini to'ldirishni bo'yicha quyidagi mazmundagi qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq:

“tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari buzilishi holatlariga yo'l qo'ymaslik;

atrof muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi majburiyatlarni, ishlab chiqarish ekologik rejaları va dasturlar bajarilishini ta'minlash;

o'z faoliyati oqibatida atrof muhitdagi o'zgarishlar, uning prognoz qilinayotgan holati, tabiiy resurslardan foydalanish va vakolat doirasida ko'rilayotgan choratadbirlar to'g'risida maxsus vakolatli davlat organlari hamda fuqarolarni xabardor qilish”.

2.13. “Ekologik nazorat to'g'risida”gi Qonunning 19-moddasiga faoliyati tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash, atrof muhitga ko'p miqdorda ifloslantiruvchi moddalarni chiqarish va oqizish hamda chiqindilarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik boshqaruvi organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarida ekologik xizmatlarni tashkil etish majburiy ekanligi to'g'risida qo'shimcha kiritish lozim.

2.14. Jamoatchilik ekologik nazorati imkoniyatlarini yanada kengaytirish va kuchaytirish maqsadida Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida namunaviy nizomni tubdan qaytadan ko'rib chiqib, uni namunaviy nizom emas, balki nizom sifatida qabul qilish lozim. Bunda yangi hujjat loyihasida jamoatchilik ekologik nazoratining har bir shaklini amalga oshirish tartib-taomillarini, jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirayotgan fuqarolar, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillarining huquq va majburiyatlari, ekologik masala bo'yicha qaror qabul qilayotgan

mansabdor shaxsning qaror qabul qilishidan oldin, albatta, jamoatchilik muhokamasidan o'tkazishi lozimligi to'g'risidagi qoidalarni batafsil yoritib berish zarur.

2.15. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 29-moddasida o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish masalasi tartibga solingan. Fikrimizcha, ushbu ro‘yxatga O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi o‘simlik turlarini tabiiy muhitdan olish bilan bog‘liq bo‘lgan loyihalarni ham kiritish lozim.

2.16. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkaziladigan faoliyat turlarining ro‘yxatida “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 29-moddasida belgilangan o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish bilan bog‘liq davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan loyihalar nazarda tutilmagan. Shuni inobatga olib, davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkaziladigan faoliyat turlarining ro‘yxatini “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiqlashtirish maqsadida ushbu ro‘yxatga tegishli qo‘shimcha kiritish maqsadga muvofiq.

2.17. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrda “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi Qonunida “tabiiy resurslar kadastrini foydali qazilma konlari, belgilari va texnogen mineral hosilalar davlat kadastrini, davlat suv kadastrini hamda davlat o‘rmon kadastrini” mavjud. Biroq, Tabiat resurslari vazirligining ushbu kadastrlarni amalga oshirishdagi roli O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining faoliyatini tartibga soluvchi hujjatda nazarda tutilmagan. Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi Qonunida hamda O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi hujjatda tabiiy resurslar kadastrini amalga oshirishda Tabiat resurslari vazirligining muvofiqlashtiruvchi rolini belgilash lozim. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi (hozirgi – Tabiat resurslari vazirligi) to‘g‘risida nizomning 10-bandini “tabiiy resurslarning davlat hisobiga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish, tabiiy resurslarning davlat kadastrini yuritish hamda tabiiy resurslar holati ustidan monitoringni amalga oshirish, shuningdek, maxsus vakolatli davlat organlarining ushbu sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirish” degan norma bilan to‘ldirish hamda ushbu vazifa doirasi qo‘mita tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalarni mustahkamlash maqsadga muvofiq.

2.18. Yagona yondashuvni ta‘minlash maqsadida tabiiy resurslar monitoringi bilan bog‘liq barcha hujjatlarni yagona hujjatga tizimlashtirish hamda tabiiy resurslar monitoringi bo‘yicha alohida qonun hujjatini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq. Ta‘kidlash lozimki, “Ekologik monitoring to‘g‘risida”gi alohida qonun Braziliyada, Kanadada, Tojikiston Respublikasida qabul qilingan, Turkmanistonda 2022-yilda ushbu qonunni ishlab chiqish bo‘yicha ishlar boshlangan.

2.19. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 23-moddasi o‘ta umumiy va yuzaki bo‘lib, amalda Qonun faqatgina monitoring tushunchasiga ta‘rif berish va uni amalga oshirish tartibi Hukumat tomonidan belgilanishi bo‘yicha havolaki normadan iborat bo‘lib qolgan. Hozirgi

kunda qonunlarning to'g'ridan to'g'ri amal qilishini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida Qonunning ushbu moddasini qayta ko'rib chiqish va quyidagi tahrirda bayon etishni taklif qilamiz:

“23-modda. O‘simlik dunyosi monitoringi

O‘simlik dunyosi monitoringi atrof tabiiy muhit holatining ularga ta’sirni aniqlash va respublikaning u yoki bu hududida o‘simlik dunyosi obyektlarining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini prognozlashtirish maqsadida o‘tkaziladigan muntazam kuzatuvlardan iborat.

O‘simlik dunyosi obyektlari monitoringini amalga oshirish, atrof muhit monitoringining ma’lumotlar bazasini yuritish hamda O‘zbekiston Respublikasida atrof muhit davlat monitoringi dasturini ishlab chiqish O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Tabiiy o‘simliklar majmuilari va yovvoyi holda o‘svuchi o‘simliklar o‘simlik dunyosi monitoringi kuzatishlarining obyektlari hisoblanadi.

Tabiiy o‘simlik majmualari va yovvoyi holda o‘svuchi o‘simliklar ustidan kuzatishlar davriyligi monitoring shartlari va usullariga bog‘liq ravishda bir yilda kamida bir marta belgilanadi”.

2.20. “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunda davlat qo‘riqxonalarining hududida ilmiy-tadqiqot faoliyati yuritish mumkinligi belgilangan bo‘lsada, bunday faoliyat atrof tabiiy muhitga, shu jumladan o‘simlik dunyosi obyektlariga zarar yetkazmasligi zarurligi Qonunda o‘z aksini topmagan. Shundan kelib chiqib, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasi birinchi qismiga “Davlat qo‘riqxonalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish o‘simlik, hayvonot dunyosiga hamda atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmasligi shart” degan mazmundagi qo‘shimcha kiritish maqsadga muvofiq.

2.21. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahriri) 32-moddasi to‘rtinchi xatboshisini quyidagi tahrirda bayon etish lozim: “sun’iy yaratilgan sharoitlarda yetishtirilgan yovvoyi holda o‘svuchi o‘simliklarga va ularning yashash faoliyati mahsulotlariga nisbatan qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda mulk huquqiga ega”.

2.22. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunda o‘simlik dunyosi obyektlariga nisbatan xususiy mulk huquqi instituti belgilanganligidan kelib chiqib, yuqoridagi ayrim qonunlarni ushbu Qonun talablariga muvofiqlashtirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida” Qonuni 19-moddasi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasi hamda Fuqarolik kodeksining 169-moddasiga ayrim tabiiy resurslar yuridik va jismoniy shaxslar mulkchiligida bo‘lishi mumkinligi haqidagi qoidani belgilash maqsadga muvofiq.

2.23. “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonunda ham davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan zaxira yerlarida pichan o‘rish va chorva mollarini o‘tlatish uchun Tabiat resurslari vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy bo‘linmalari tomonidan ruxsatnoma berilishi nazarda tutilgan. Shularni inobatga olgan holda “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi

Qonunning 34-moddasiga Tabiat resurslari vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy bo‘linmalari tomonidan qaror chiqarilishi emas, balki ruxsatnoma berilishi to‘g‘risida o‘zgartirish kiritish zarur.

2.24. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunda O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi holatlar ham nazarda tutilgan. Shularni inobatga olib, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi hamda “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonunlarni o‘zaro muvofiqlashtirish lozim.

2.25. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 37-moddasida davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni binolarni, inshootlarni va kommunikatsiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish bilan bog‘liq holda kesishga yo‘l qo‘yilishi belgilangan. Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrda PF–46-son Farmoni bilan davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirilgan. Shu munosabat bilan “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 37-moddasida daraxtlar va butalarni binolarni, inshootlarni va kommunikatsiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish bilan bog‘liq holda kesishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risidagi qoidani belgilash maqsadga muvofiq.

2.26. Qonunchilikdagi bo‘shliqni bartaraf etish hamda o‘simlik dunyosi obyektlaridan oqilona va samarali foydalanishni ta‘minlash maqsadida “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 30-moddasidan oltinchi qismini chiqarib tashlagan holda, Qonunni quyidagi mazmundagi 30¹-modda bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq:

